

Transpozitsiya hodisasi haqida ba'zi mulohazalar
(Nasriy va nazmiy matnlar tarkibidagi misollar asosidagi tahlil)

Некоторые соображения о явлении транспозиции
(Анализ на примерах прозаических и стихотворных текстов)

Some considerations about the phenomenon of transposition
(Analysis based on examples of prose and verse texts)

Erbutaveva
Shalola
O'tkirovna

1.- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida transpozitsiya hodisasining o'rganilishi, transpozitsiya turlari, mustaqil va yordamchi turkumga oid birliklarning ko'chishi haqidagi ilmiy nazariyalarga munosabat bildirildi.

Kalit so'zlar. transpozitsiya, ichki transpozitsiya, tashqi transpozitsiya, konversiya, grammatik kategoriya, badal, peshtoq.

Аннотация. В данной статье рассмотрено исследование феномена транспозиции в мировой и узбекской лингвистике, виды транспозиции, а также научные теории о миграции единиц самостоятельных и вспомогательных категорий.

Ключевые слова. транспозиция, внутренняя транспозиция, внешняя транспозиция, конверсия, грамматическая категория, "badal", "peshtoq".

Abstract. This article discusses the study of the phenomenon of transposition in world and Uzbek linguistics, types of transposition, as well as scientific theories about the migration of units of independent and auxiliary categories

Key words. transposition, internal transposition, external transposition, conversion, grammatical category, "badal", "peshtoq".

Kirish. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchi turkumiga oid birliklar doirasi kengayib boryapti, shu sababdan bu kabi birliklarni chegaralab qo'yish matnning umumiy mazmunini to'la ochib bera olmaydi yoki aksincha, mazmundan uzoqlashishi, g'alizlikni yuzaga chiqarib qo'yishi mumkin.

So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishini yangi o'rganish 19-asrda A.X. Vostokova, F.I. Buslaeva, G.P. Pavskiy (Жумаева, 2023)¹ va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ayni bu jarayon tilshunoslikda transpozitsiya termini orqali ifodalanadi.

Terminologik lug'atda konversiya va transpozitsiya aynan bir xil tushuncha ekanligi keltirilgan. Til hodisalarining funksional jihatlari bilan bog'liq, ya'ni til belgilarini qayta toifalash shakllaridan biri "transpozitsiya" o'zining alohida dolzarbligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy tilshunoslikda transpozitsiya tushunchasi bir ma'noli talqinga ega emas va bu masalada tilshunoslar ko'pincha umumiy fikrga kelisha olmaydilar. Jahon tilshunosligida E.S.Kubryakova, V.G.Gak, P.A.Soboleva, O.Jespersen, L.Tenierlar o'z ilmiy tadqiqotlarini gap bo'laklarining o'zaro ta'siri va buning natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarga bag'ishlaganlar. Ma'lumki, vaqtlar

Erbutaveva
Shalola
O'tkirovna,
o'qituvchi,
assistent,

O'zbekiston –
Finlandiya
pedagogika
instituti,

O'zbekiston,
Samarqand

utkirovnashalo
la@gmail.com

¹Жумаева, Ф.(2023).ТРАНСПОЗИЦИЯ ВНУТРИ КАЧЕСТВЕННЫХ И НЕКАЧЕСТВЕННЫХ АДЪЕКТИВОВ. Ижтимоий-Гуманитар Фанларнинг Долзарб Муаммолари/Актуальные Проблемы Социально-Гуманитарных Наук/ActualProblemsofHumanitiesandSocialSciences., 3(4), 176–18.

o'tishi bilan boshqa sohalarda bo'lgani kabi til ham o'zgarishlarga uchraydi va qaysidir ma'noda rivojlanib boradi. Buning natijasida til hodisalari ham bu jarayonlardan chetda qolmaydi va bir-biriga o'tib boradi. Bunday hodisalarga nisbatan biz "tarjima", "konversiya", "almashtirish", "transpozitsiya" kabi atamalarni qo'llab kelmoqdamiz. Yuqorida sanab o'tilgan til hodisalari ko'p tilshunoslar tomonidan o'rganildi. Shunday hodisalardan biri bu - transpozitsiya. *Transpozitsiya* atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "*o'rin almashtirish*" degan ma'noni anglatadi. Azim Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"²da: "Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi"², - sifatida ta'rif berilgan. Transpozitsiya ikki xil bo'lib, ichki va tashqi transpozitsiyaga ajraladi. So'z turkumlarining bir guruhi doirasidagi o'zaro vazifa almashinish ichki transpozitsiya hisoblanisa, har xil to'plam tarkibidagi almashinish hodisasi tashqi transpozitsiya hisoblanadi.

Til tizimi, nutqning asosiy tarkibiy qismi hisoblanmish so'zning murakkab sintaktik vazifalarni bajaradigan grammatik shakllarning murakkab tuzilmasi ekanligini ko'rsatadi. Bu haqida yuqorida keltirib o'tdik. Shunga qaramay, til tizimi nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tish uchun zarur shart-sharoitlarga ega. Ayrim shakllar so'zning asosiy tarkibidan ajralib, mustaqil so'zlarga aylanishi mumkin yoki aksincha. *So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining har bir leksik-grammatik jarayoni o'ziga xos semantik, morfologik va sintaktik tartib shartlariga ega va har bir aniq holatda ba'zi shartlar etakchi, boshqalari esa faqat hamroh yoki neytraldir. So'zlarning nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tishining yagona universal sharti yo'q*³. Biz yordamchi turkum tarkibiga kiruvchi ko'makchilar transpozitsiyasi haqida, ya'ni uning mustaqil turkumdan yordamchi turkumga ko'chishi, ko'makchilashish jarayoni haqida to'xtalmoqchimiz. Shu o'rinda transpozitsiya nazariyasi va uning turlari haqida ham to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Transpozitsiya nazariyasi dastlab fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa, keyinroq esa uning individual jihatlarini O.Jespersen, A.Seshe va L.Tennierlar o'rganadilar. Jumladan, Jespersen: "Transpozitsiyani keng ma'noda, ya'ni har qanday lingvistik shaklning ko'chirilishi, ya'ni semantik transpozitsiya, masalan, zamon, mayl, gapning kommunikativ turlari va boshqalarni ko'chirish sifatida ko'rish mumkin"⁴, - ekanligini asoslab beradi. Aynan transpozitsiya hodisasini o'rgangan tilshunos E.S.Kubryakova unga quyidagicha ta'rif beradi: "...tor ma'noda, funksional transpozitsiya sifatida, bu "nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tish yoki uni nutqning boshqa qismi vazifasida qo'llash"⁵. Transpozitsiya g'oyasi transformatsion usul asosida shakllanadi. Hozirgi tilshunoslikda transpozitsiya so'z yasalishi, uslubiyat va sintaksis bilan bog'liq holda o'rganiladi. Grammatik transpozitsiyani qo'llash orqali muallif so'zning mutlaqo yangi grammatik ma'nosini yaratadi va matnga qo'shimcha semantika kiritadi.

²Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 -Б 109.

³Бардина Т.К. Проблема лексико-грамматической переходности частей речи в современном русском языке. / Диссертация. – 2003. –Б 182.

⁴Есперсен О., Философия грамматики, пер. с англ., М., 1958, -Б 310.

⁵Кубрякова Е.С., Части речи в ономазиологическом освещении, М., 1978, -Б 53.

O'zbek tilida turkumlarning o'zaro ko'chish usullari ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan, jumladan, Z.S.Isoqov, J.D.Eltazarov, I.I.Rasulov, A.E.Botirova, A.B.Pardayev, S.Mamatqulov, A.Begmatov, G.Karimovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Ma'lumki, til sathlari va sath birliklari orasida doimiy aloqa mavjud. Aynan mana shu aloqa sathlararo ko'chishni yuzaga keltiradi. Professor J.Eltazarov til sathlari va birliklari orasida yuzaga keluvchi aloqani dinamik aloqa guruhiga kiritish mumkinligini, bunga sabab qilib esa til struktural jihatdan o'zgarishda, funksional jihatdan takomillashishda bo'lgan tizim⁶ ekanligini keltirib o'tgan. So'z turkumlari o'rtasidagi aloqa kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan emas, so'z turkumlarini mustaqil, yordamchi va alohida turlari mavjudligi ma'lum. Aynan mana shu turlar o'rtasida, aniqroq aytadigan bo'lsak, mustaqil turkumga oid birlikning yordamchi turkumga ko'chishi, hatto affiks holiga kelib qolishi o'zbek tili qonuniyatlariga zid emas.

Til sathlari o'z navbatida til sath birliklarini ham chegaralash imkonini yuzaga chiqaradi, ya'ni ma'lum sath birligi keyingi sath birligini shakllantirish uchun asos vazifasini bajarib beradi. Shu jarayonda mustaqil turkumga oid til birligi yordamchilik vazifasiga sekin-astalik bilan o'tib boradi. Jahon tilshunosligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, A.Peshkovskiy so'z turkumlari yuzasidan o'zigacha bo'lgan qarashlardan farqli o'laroq: "So'zlarni turkumlash emas, ularning tilda tabiiy guruhlanishlarini kuzatish tilshunosning vazifasi bo'lishi lozim"⁷ligini aytadi. Shu fikrga tayangan holda, so'zlarning turkumlararo ko'chish hodisasi ularning nazariy izlanishlarida aks etganligining guvohi bo'lishimizga qaramasdan: "Tilshunosligimizda, – deydi professor Eltazarov, – ... hozirgacha so'z turkumlariaro ko'chishning juz'iy masalalari qalamga olingan, ko'chish faqat bir yoki bir necha so'z turkumi doirasidagina tekshirilgan, xolos. So'z turkumlariaro aloqa va ko'chishning yirik muammolari, xususan, ko'chishning tafakkuriy, lisoniy va nutqiy asoslari, mustaqil so'z turkumlariaro ko'chish, mustaqil so'zlarning yordamchi so'z turkumlari bilan aloqasi va o'zaro ko'chishi, alohida guruhdagi so'zlarning mustaqil va yordamchi turkumlar bilan aloqasi va o'zaro ko'chishi, alohida guruhdagi so'zlarning mustaqil va yordamchi so'z turkumlari bilan aloqasi va o'zaro ko'chishi, grammatikalizatsiya hodisalari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda"⁸. Biz tadqiq etayotgan ko'makchilashish hodisasi grammatikalizatsiya hisoblanib, transpozitsiya natijasida shakllanadi. Transpozitsiyaning ikki turi mavjudki, bular ichki va tashqi transpozitsiyadir. Mustaqil so'zlar grammatikalizatsiyaga uchrashi natijasida yordamchi turkumga yoki mustaqil so'z turkumidan mustaqil so'z turkumiga ko'chishi mumkin. Transpozitsiyaning tashqi turi mustaqil so'zning grammatik kategoriya tomon siljishidir. Ko'makchilashish jarayonidagi yoki ko'makchilashgan so'zlar grammatikalizatsiyaning natijasi hisoblanib, bu o'z navbatida lisoniy va nutqiy asoslar ta'siri natijasida shakllanadi.

M: ***Ellik yil avval*** ham u chechan edi.

"Abdulla Qodiriy millatchi" derdi.

Minbardan jon olib, ulashardi jon.

⁶Элтазаров Ж.Д. Сўз туркуми парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.-Б 15

⁷Исаков З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни.- Қўқон, 2011, -Б 8.

“Yig‘loqi” - Oybekka bergandi unvon⁹. Usmon Azim qalamiga mansub ushbu misralarda “avval” ko‘makchi vazifasida qo‘llanilgan. O‘TILda keltirilgan 4-ma‘nosi izohida berilgani kabi payt bildiruvchi “*ellik yil*” birikmasidan so‘ng qo‘llanilgan. Bu misolda ko‘makchi vazifasini bajarib kelyapti, lekin matn tarkibida yakka o‘zi mustaqil so‘z turkumi, ya‘ni ravish, yana-da aniqrog‘i, payt ravishi vazifasini namoyon etadi.

M: **Avval** yashashni o‘rgan

Keyin o‘lishni.

Keyin

Sochilgan suyaklaringni yig‘ib,

Yana jon ato qil o‘zingga o‘zing¹⁰. Mustaqil turkum vazifasida qo‘llangan *avval* yakka holda so‘roqqa javob bo‘lishi, shu bilan birgalikda darajalanish xususiyatiga ega ekanligi bilan ko‘makchilardan farqlanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, biz tahlil uchun misol izlash jarayonida ko‘makchi vazifasida qo‘llangan *avval* so‘zi ham uslubi va matniy talab tufayli darajalanishi mumkinligining ham guvohi bo‘ldik.

M: Xullas, xachir holing qora qilmishlar

O‘zidan avvalroq yaratilmishlar.

Yo‘qsa, dovrug‘ solib olamga bot-bot,

Ne-ne tulporlarni etmasmidi mot¹¹.

Demak, vazifadosh *avval* ko‘makchisi ravish turkumidan yordamchi turkum doirasiga ko‘chgan funksional ko‘makchi hisoblanadi.

Rahmat yomg‘irlari yog‘di falakdan,

Payg‘ambar kemasi - xayot beshigi.

Bir yorug‘ daricha ochdim yurakdan,

Ochildi saodat, sevgi eshigi.

Uning peshtoqida yam-yashil qushlar,

O‘zidan nur tarab sayraydi oyat.

Guldurak gulduros otib olqishlar,

Bu oqshom dil sari kelibman,shoyad¹². Eshqobil Shukur ijodiga oid ushbu misralarda “peshtoq” so‘zi *uning* (yurakning) *peshtoqida* birikmasi ko‘makchilik funksiyasini bajarib kelmoqda. Garchi bu misolda peshtoq so‘zi yaqqol ko‘makchilik xususiyatini namoyon etmayotgan bo‘lsa-da grammatik vazifa bajaraib kelyapti. Shu maqsadda etimologik lug‘atda keltirilgan izohni ko‘rib chiqamiz: **peshtoq “tojikcha” pesh I – oti bilan (q)** Binoning eshik (darvoza) tepasidagi yarim doira shaklida qurilgan qismi” ma‘nosini anglatadigan *toq* otidan iborat¹³. Demak, pesh (tojik) + toq (o‘zbek) yetakchi affiksalaridan iborat ekan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa bu so‘zning ma‘nosi birmuncha aniqroq izohlangan. “Peshtoq [fors.oldda.gumbaz, arka; gumbaz, qubba]. Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy kabi binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi; mehrob shaklli baland darvoza, ark”. *Peshtoq chekkasida she‘rlar tasvirlangan*. O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi¹⁴. *Peshtoq* so‘zi ot turkumiga mansub so‘z bo‘lib, ko‘makchi turkumga ko‘chgan deyishimiz mumkin. Ijodkorning

⁹Usmon Azim. Uyg‘onish azobi. Toshkent, 1991. 18-bet

¹⁰ Usmon Azim. Uyg‘onish azobi. Toshkent, 1991. 10-bet

¹¹ Usmon Azim. Uyg‘onish azobi. Toshkent, 1991. 167-bet

¹²Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2002. – 318 б.

¹³Ўзбек тилининг етимологик луғати. Университет. Тошкент. 2000. 190-бет.

¹⁴Ўзбек тилининг изохли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008,

badiiy mahorati bunday badiiy topilmalarni matnda aks ettira olishi ham turkumlararo ko'chish va buning natijasida muayyan tilning o'z ichki imkoniyati asosida boyishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Toir ijodiga mansub quyidagi parchada ham *peshtoq* so'zining ko'makchi turkumiga siljiganini aniqroq ko'rishimiz mumkin.

Dunyoni kashf etib, dunyoni bildik,

Tadqiq eta oldik yomg'irni, qorni,

Falak peshtoqiqa bayroqni ildik,

*Bildik borliq aro har neki borni.*¹⁵

Ko'makchilashishda so'zning ma'nosi mavhumlashib boradi, metaforik ma'no ifodalaydi. Bu jarayonda yuqorida keltirilgan birliklarni funksional ko'makchi sifatida olishimiz mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida ham bu kabi birliklarni funksional ko'makchilik xususiyati haqida aytib o'tilgan. Bunda biz har qanday metaforik ma'no ifodalagan so'zni boshqa turkumga ko'chgan deyolmaymiz, albatta. Bir turkumdan boshqa turkumga ko'chish hodisasi ham ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi.

Ko'makchi so'zlarning o'z turkumini o'zgartirishi turlicha bo'lgan. Jumladan, transpozitsiya hodisasi orqali bir turkumga mansub so'zining matnda boshqa bir turkum so'zga aylanishi kuzatiladi. O'zbek tilining izohli lug'ati tarkibida bir qancha ko'makchi so'zlar mavjud ekanligi, ular tarkibida ko'makchilik xususiyatini to'la namoyon eta oladigan, ya'ni ko'makchilashib ulgurgan ko'makchilar mavjudligining guvohi bo'lamiz. O'zbek tilining izohli lug'ati tarkibida quyidagi ko'makchi va ko'makchilashayotgan so'zlarning tahlilini keltiramiz. Quyidagi *badalida so'zi* ko'makchi vazifasida ham qo'llaniladi. Davomida, mobaynida, o'tgan vaqt ichida. Ikki yil badalida otamning topib-tutib to'lagani qarzining foydasinigina qoplay oldi. G'.Rasul. Adolat. O'n yil badalida yuragidagi zahar zaqqumga aylandi. "Yoshlik"¹⁶. Bu leksemaning asos qismi "badal" biror narsa evaziga almashtiriladigan ma'nosini beradi. *Badaliga va badalida* leksemalari bir-biridan turkum doirasida farqlanadi.

*M: Shu uch-to'rt kun badalida juda yaqin kishimdek bo'lib qolding, - deydi u keyin jimjilog'ining uchi bilan qovoqlarini artarkan, - xuddi dadamdexsan. Shuncha yilning badalida nimaga bir yo'qlab bormadi? Imkon topsa bo'lardi-ku. Yoki oyog'i tortmadimi? Nega?*¹⁷

Yuqorida keltirilgan misollarimizda *davomida, mobaynida, o'tgan vaqt ichida* ma'nolari ifodalanayapti. 2-misolimizda esa *badaliga* leksemasida esa asos qismi ifodalagan *evaziga* ma'nosi yuzaga chiqadi.

Ne bo'lsa qiy dag'i eygu amal qil,

Shaqovatni saodatga badal qil.

Deguldur to'n bilan bu porsolik

*Tilasang zuhd-u taqvo nafs evin yo'q*¹⁸. Yoki "...*maslahat ul dururkim, bu xasta uchun Qur'on xatm etkaysan yo badali qurbon qilgaysan*"¹⁹. Ikkala misolimizda ham

¹⁵To'xliyevB, KarimovB, UsmonovaK. Adabiyot. 11-sinf (Ilqism), - Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.. Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. 92-bet.

¹⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўз МЭ, 2006-2008. В харфи, 132-бет.

¹⁷Misollar "Shovqin" romanidan olindi. 126-bet.

¹⁸Саройи Сайфи. Шеърлар. Гулистон. -Тошкент: Фафур Ғуломномидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968, 97-бет

¹⁹Саройи Сайфи. Шеърлар. Гулистон. -Тошкент: Фафур Ғуломномидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968, 220-бет

evaz ma'nosi yuzaga chiqyapti. Mustaqil va yordamchi so'zlar bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Shundagina so'zlarning asl denotativ ma'nosi oydinlashadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, keyingi yillar tadqiqotlarida so'z turkumlari masalasi nisbatan aniqlashdi, chunki so'z turkumlarining ma'lum tasniflovchi belgilari ishlab chiqildi. So'z turkumlari transformatsiyasi, genezesi, funktsionallik va pragmatik jihatlariga doir ishlar amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saroyi Sayfi. She'rlar. Guliston. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968,
2. Есперсен О., Философия грамматики, пер. с англ., М., 1958, -Б 310.
3. Кубрякова Е.С., Части речи в ономаσιологическом освещении, М., 1978, -Б 53.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002 -B 109.
4. Бардина Т.К. Проблема лексико-грамматической переходности частей речи в современном русском языке. / Диссертация. – 2003. –Б 182.
5. Eltazarov J.D. So'z turkumi paradigmasidagi o'zaro aloqa va ko'chish hollari. Toshkent:O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. -B
6. Жумаева, Ф. (2023). Транспозиция внутри качественных и некачественных адъективов. Ижтимоий-Гуманитар Фанларнинг Долзарб Муаммолари/Актуальные Проблемы Социально-Гуманитарных Наук /ActualProblemsof Humanitiesand Social Sciences., 3(4).
7. O'zbek tilining yetimologik lug'ati. Universitet. –Toshkent.2000. –B 190.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati, - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2006-2008, To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot.11-sinf (IIqism). – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.2018. 92-bet.
- 9 Erkin A'zam, Shovqin. Roman. Qissa. Hikoyalar - Toshkent: O'zbekiston – 2011.